

O'RTA ASRLARDA MUSIQA TARBIYASINI O'RGANISHNING PEDAGOGIC IMKONIYATLARI

Qo'shayev Ilhom Axtamovich

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

Nematova Maftuna Ismatullo qizi

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası 1-MUZ-22 guruh talabasi

Annatsiya:Maqolada O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan bo'lgan Samarqand va Buxoroning musiqiy-uslubiy xususiyatlari, Jumladan, Zarafshon vodiysi hududida istiqomat qiluvchi aholi musiqa merosida folklor hamda kasbiy ijodiyot qatlamlarining shakl, janr va ichki uslublari, birlaridan ajralib turishi, musiqa san'ati namoyondalari-bastakorlar, hofiz va sozandalar, musiqa olimlari katta obro' va mavqeyga ega bo'lganlari haqidagi masalalar keng yoritibberilgan.

Maqsad: O'zbekistondagi turli viloyatlarda rivojlangan folklor hamda kasbiy musiqaning janr va ichki uslublari haqidagi tuhsunchalarga ega bo'lish va boshqalar bilan fikrlashish.

Materiallar va metodlar: XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid turli xil ashyoviy manbaalar eng ishonarli dalil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolamizda keltirilgan yangiliklar orqali vatanimizning hozirgi zamon jonli musiqa amaliyotida sof cholg'u kuylaridan bo'lak musiqachilarni bahramad dilish.

Muhokama va natijalar: Har qanday kasb hunarmandchiligida bo'lgani kabi, musiqachilikda ham mutaxassis o'z kasbiy sirlarini, to'plagan tajribasini keyingi avlod vakillariga avaylab-asrab etkazishini muqaddas vazifalaridan biri, burchi deb bilgan. Hamda uni uzluksiz amalga oshirishga harakat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin Respublikamiz mustaqilikka erishganidan so'ng, ilgari asosan rus va chet el musiqasiga asoslangan dastur va darsliklar o'rniga yangi milliy musiqaga asoslangan DTS lari dastur va darsliklar ishlab chiqilganligi musiqa namunalari ham ma'lum miqdorda, musiqa materiali hisoblangan o'zbek kuy qo'shiqlari bilan dastur va darsliklarida berilgan chet el musiqa namunalarini ham o'quvchilar ongiga singdirish masalasi turibdi. Milliy va xorijiy musiqa asarlarining o'ziga xos farqli va umumiy xususiyatlarni tahlil qilish natijasida ularning ayrim namunalari asosida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab ko'rsatish bunday xilma-xil asarlarni tushunib idrok qilishni yaxshilaydi

Kalit so'zlar:Xassos, sozandalar, qo'biz, do'mbira, xalfalar san'ati, jirov, doston noma, dutor, Ozarbayjon tori, bulamon, garmon, ochiq ovozda doston kuylash, yopiq ovozda kuylash baxshichilik doston festivali, doston maktablari, doston pedagogikasi, ustoz-shogird an'anasi.

Аннотация:В статье рассматриваются музыкально-стилевые особенности Самарканда и Бухары, древнейших культурных центров Средней Азии, в том числе формы, жанры и внутренние стили фольклорных и профессиональных творческих слоев в музыкальном наследии жителей Зарафшанской долины, их отличия друг от друга, большой авторитет у представителей музыкального искусства-композиторов, хaufизов(певцов) и созанды(музыканты), музыковедов и широко освещаются вопросы, связанные с их положением.

Цель: Иметь представление о фольклоре, развивающемся в различных регионах Узбекистана, а также о жанрах и внутренних стилях профессиональной музыки и обмен мнениями с другими.

Материалы и методы: Наиболее убедительным доказательством служат различные вещественные источники, относящиеся к музыкальной культуре, найденные при археологических раскопках первой половины XX века. Наслаждайтесь чисто инструментальными мелодиями в современной практике живой музыки нашей родины через новостей, представленные в этой статье.

Обсуждение и результаты: Как и в любом профессиональном ремесле, в музыкальном деле специалист считал одной из своих священных обязанностей и бережно передавать свои

профессиональные секреты, накопленный опыт следующему поколению. Осуществлять его непрерывно.

Заключени: В заключение можно сказать, что после обретения нашей республикой независимости, ранее основанных в основном на русской и зарубежной музыке, были разработаны новые программы и учебники по национальной музыке. В результате анализа специфических отличительных и общих чертах произведений национальной и зарубежной музыки на основе отдельных их образцов выявить их отличительные черты и улучшает восприятие.

Ключевые слова: Хассос, созандалы, кобыз, домбра, искусство халфов, жиров, эпос нома, дутор, Азербайджанский Тор, буламон, гармон, пение эпоса открытым голосом, пение закрытым голосом бахши, фестиваль эпоса, эпос школы, эпическая педагогика.

Annotation: The article examines the musical and stylistic features of Samarkand and Bukhara, the oldest cultural centers of Central Asia, including the forms, genres and internal styles of folklore and professional creative layers in the musical heritage of the inhabitants of the Zarafshan Valley, their differences from each other, great authority among representatives of musical art-composers, hafiz (singers) and sozanda (musicians), musicologists, and issues related to their situation are widely covered.

Purpose: To have an idea about folklore developing in various regions of Uzbekistan, as well as about genres and internal styles of professional music and to exchange opinions with others.

Materials and methods: The most convincing evidence is provided by various material sources related to musical culture found during archaeological excavations in the first half of the 20th century. Enjoy purely instrumental melodies in the modern practice of live music of our homeland through the news presented in this article.

Discussion and results: As in any professional craft, in the music business, the specialist considered one of his sacred duties and carefully passed on his professional secrets and accumulated experience to the next generation. To carry it out continuously.

In conclusion, it can be said that after our republic gained independence, previously based mainly on Russian and foreign music, new programs and textbooks on national music were developed. As a result of the analysis of the specific distinctive and common features of the works of national and foreign music on the basis of their individual samples to identify their distinctive features and improves perception.

Keywords: Hassos, sozandals, kobyz, dombra, the art of halves, fats, the epic of noma, dutor, Azerbaijani Tor, bulamon, harmon, singing the epic with an open voice, singing with a closed voice bakhshi, epic festival, school epic, epic pedagogy.

O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan bo'lgan Samarqand va Buxoroning musiqiy-uslubiy xususiyatlari biroz o'zgachadir. Jumladan, Zarafshon vodiysi hududida istiqomat qiluvchi aholi musiqa merosida folklor hamda kasbiy ijodiyot qatlamarining shakl, janr va ichki uslublari bir-birlaridan keskinroq ajralib turishi kuzatiladi. Asl ma'nodagi musiqa san'ati namoyondalari-bastakorlar, hofiz va sozandalar, musiqa olimlari, ular qatoridan o'z vaqtida saroyda xizmat qilganlari butun o'lkamizda juda katta obro' va mavqeyga ega bo'lganlar. Ular mumtoz ashula va kuy, maqom va boshqa rivojlangan shakllardagi musiqa namunalarning ijodkorlaridir. Xassos ijrochi va bilimdon nazariyotchilardan bir qanchasi esa nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo, islom sharqi bo'ylab shuhrat qozonganlar. San'atchi ayollar bilan "sozandalar" nomli ijodiy guruhlar faoliyati shu voha madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Guruh ishtirokchilari mahalliy-an'anaviy musiqa hamda jozibali raqslarning mohir ijrochilari sifatida omma orasiga keng tanilgan. Musiqaning kuy ohanglari ham usullari tabiatida, mavjud musiqiy cholg'ulari va ulardan ijrochilikda sezilarli darajada o'z aksini topadi. Xususan, O'zbekistonning boshqa hududlarida ko'proq she'riy-badihali usulga moyildir. Xorazmda esa dostonlar musiqiy jihatdan ifodaliroq tabiati, shaklan rivojlangan xalqchil kuy va nomalari bilan farq qiladi. Uzoq o'tmishda qo'biz, keyinchalik do'mbira jo'rligida dostonlar aytilgani ma'lum. So'nggi zamonlarda dutor, ba'zida Ozarbayjon tori, yoki tarkibida asosan g'ijjak, dutor, bulamon va doyradan iborat ixcham an'anaviy ansambl ishtirokida doston aytish bu erda odat tusiga kirgan.

Xorazmda qo'llanilgan milliy musiqa cholg'ulari ham ayrim o'zgacha xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, bulamon respublikamizning faqat ushbu viloyatida ham yaqin qo'shni hududlarda tarqalgan. Mahalliy surnayning ham o'zgacharoq yangrash va tuzilishi ma'lum. Taxminan, XIX asrning ikkinchi yarmidan to bugungacha Xorazmda garmon sozi keng qo'llanilib kelmoqda. Ammo, ayni chog'da bu viloyatda qadimgi do'mbira mutlaqo amaliyotdan chiqib ketgan. "Xalfa" nomli ayollar ijodiy guruhlarning noyob ijro bisoti ham xuddi shu o'lka mahalliy uslubining o'ziga xos alomatlaridan biridir. Kavkaz xalqlarining "tor" nomli eng mashhur cholg'usi XX asrning boshlarida o'z imkoniyatini bo'yicha o'zbek sozandalariga juda ma'qul keldi. Bu jarangdor cholg'u zamonaviy qo'shiq va ashula ijrochiligi jo'rligida dast avval Xorazmda qo'llanila boshlangan. Yana bir qator milliy musiqa asboblarining tuzilishida ularning an'anaviy ijrochilik yo'llarida ham o'zgacha holatga duch kelish mumkin. Masalan, dutor kosaxonasining hajmi nisbatan kichikligi dastasi biroz ingichkaroq va kaltaroqligi bilan Farg'ona vodiysi va Toshkentda rasm bo'lgan an'anaviy dutordan farq qiladi. Mahalliy an'anaviy dutor ijrochiligining kasbiy jumladan, sof cholg'u yoki maqomga mos chalish uslublari ham muayyan mushtarakligi haqida o'zaro bir muncha farqlanadi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Xorazm vohasining musiqiy uslubida qoraqalpoq, turkman ayrim kavkaz xalqlari, alqissa ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib zamonlar osha bizgacha etib kelgan boy musiqa merosimizning turfa, noyob, usluban o'ziga xos va o'ziga mos tabiati – uning juda qadimiyligidan, kuchli va bitmas-tuganmas salohiyat sarchashmalaridan dalolat beradi. Shuningdek, bular xalqimizning har qancha faxrlanishiga arzigulik ulkan va bebaho madaniy-ma'naviy xazinasidir. Ma'lumki milliy musiqa merosimiz serqatlam, sernav va rango-rang uslubli ijodkorlik hamda uning ijrochiligiga oid jabhalaridan tashkil topadi. Ushbu jabhalarning farqli tub xususiyat va qonuniyatlarini hisobga olgan holda, merosimizni shartli ravishda ikki yirik qatlam (shaxobcha) ga ajratish asoslidir. Bulardan biri o'zbek musiqa folklori bo'lib azaliy, quyi qatlam (yoki shaxobcha) hisoblanadi. U tom ma'noda rosmna xalq musiqiy ijodiyotining barcha shakl, janr va oqimlarini o'z ichiga qamrab oladi. Yanada kengroq qamrovda nazar tashlaganda esa milliy musiqa folklori o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida gavdalandi. O'zbek musiqa merosining yana bir qatlami (yoki shaxobchasi) hozirda ko'proq "kasbiy" nomda yuritilmoqda. Mazkur atamani bevosita o'quv iste'moliga kiritishdan avval respublikamiz musiqashunoslik ilm- fanida boshqa har-xil nomlardan foydalanib ko'rish yo'lida ko'p yillik tajriba to'plandi. Hozirda ulardan bir qanchasi eskirdi, hatto unitilib yuborildi, ayrimlari esa hanuz qo'llanilib kelinmoqda. Tub mohiyati tushunchalari birdan-bir to'g'ri idrok etilishi yo'lida, bu borada chalkashlik ro'y berishining oldini olish niyatida musiqiy atamashunoslikning ushbu dolzarb masalasiga biroz to'xtalib, unga qisqacha izox berish zarurati tug'ildi. Asrimizning ilk yillaridayoq o'zbek musiqasining tarixi va nazariyasi bilan shug'ullana boshlagan mutaxassislar merosimizda ikki katta oqim mavjudligi alohida e'tirof etiladi. Qo'shon podshologi (melodning 1-2 asrlari) davriga to'g'ri kelar ekan. Aynan, bunday xulosaga kelish uchun O'zbekiston va boshqa qo'shni respublikalar hududida XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid turli xil ashyoviy manbaalar eng ishonarli dalil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Afrosiyob, Ayritom, Xolchayon, Dalzarvintepa, Tuproqqal'a va boshqa ko'hna qadamjolarida qazib olingan o'nlab terrakota haykalchalari va toshtaxta parchalarida devoriy bezak va rasmlarda musiqachi-sozandalar, qadimiy cholg'ular rasmga tushirilgan. O'sha davrlarda yashagan bizga no'malum musavvirlar, haykaltaroshlar, ehtimol, mashhur saroy san'atkorlarini yoki diniy rivoyatlardan olingan ramziy shaxslarni aks ettirgan. Biroq shu narsa ham ayonki, bunday ko'rinishlar hdudiy-mahalliy o'z zamoni musiqiy hayotiga tayangan holda tasvirlangani shubhasizdir. Kasbiy musiqa ijodiyotiga oid jabhalarning yuzaga kelishi, avvalambor, Markaziy Osiyoda barpo etilgan davlatlar, ular tarkibidagi shahar va qal'alarda madaniy turmush yuksalishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda mehnatkash aholi orasidan etishib chiqqan mahoratli sozanda va xushovoz xonandalarni saroylarga jalb etish odatga aylanganini eslatib o'tish mumkin. Podsho, xon, amir, amaldor va zodagonlar xizmatiga o'tgan musiachilar o'z bilim va malakasini muntazam ravishda orttirib borib, yosh shogirdlarga yuqtirganlar. Ularning kasbiy faoliyati tufayli mahalliy kuy, qo'shiq va ashulalar tobora sayqal topadi. Boz ustiga, yangidan-yangi betakror asarlar yaratilishida ham rosmna xalq musiqa ijodiyoti nafaqat muhim zamin balki, bitmas-tuganmas manba'

vazifasini o'tab kelgan. Darhaqiqat, ustoz-shogird an'anasi kasbiylikning yaqqol ko'rinishi sifatida rasman dastavval saroy muhitida vujudga keladi. Har qanday kasb hunarmandchiligida bo'lgani kabi, musiqachilikda ham mutaxassis o'z kasbiy sirlarini, to'plagan tajribasini keyingi avlod vakillariga avaylab-asrab etkazishini muqaddas vazifalaridan biri, burchi deb bilgan. Hamda uni uzluksiz amalga oshirishga harakat qiladi. Buning natijasida saroy musiqasi bevosita u yoki bu mehnatga oid she'riy misralardan iboratdir.

Mashhur qo'shiqlar "Tanovor", "Farg'ona tanovari", "Qo'qon tanovari", "Adolat tanovari", "Tanovor 1", "Tanovor 2", "Tanovor ", "Yangi tanovor", "O'yin tanovari" va boshqalar shular jumlasidandir. Ashula janrining ko'p uchraydigan yana bir ko'rinishi asosan uzoq yaqin o'timish davrlar bastakorlik ijodiyotiga molikdir. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammal bo'lib, mumtoz milliy musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Uning kattagina qismi ustoz ko'rgan san'atkorlar – xonanda va hofizlar ijro bisotidan asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, "Ko'cha bog'i 1,2", "Karimqulbegi ", "Abdurahmon-begi", "Giryra 1-2", yoki Hoji Abdulaziz Rasulovning "Gulizorim", "Bebokcha", To'xtasin Jalilovning "Ishq seli", "Gulistonim mening", Yunus Rajabiyning "Ra'nolanmasin", Doni Zokirovning "Ey sabo", Saidjon Kalonovning "Topmadim", Faxriddin Sodiqovning "Go'zal", Orifxon Hotamovning "Qoshi yosinmu deyin", Xolxo'ja To'xtasinovning "Aylagach" va boshqalar shu jumlagi kiradi. Kasbiy musiqa merosimizni tashkil etgan, badiiy barkamol sifatleri bilan ta'riflanuvchi ashulalar qatorida mazkur janrning yana bir hosildor toifasi mavjud. Bunday mumtoz namunalar alohida asar sifatida, ko'proq u yoki bu maqom turkumli tarkibiga kirgan. Shu boisdan ularning "maqom ashulalari" yoki maqom "ashula yo'llari" deb yuritish ma'qulroq. "Samarqand ushshog'i", "Bayoti Sheroziy", "Toshkent irog'i", "Yovvoyi chorgoh" kabilar bunga yorqin misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqomda bo'lgani singari, katta ashulada ham hofizlikning ustoz-shogirdlik an'anasi etakchilik qiladi. Uning ko'plab ajoyib mumtoz namunalari hofiz san'atkorlar ijrochiligi orqali bizgacha etib kelgan asosan XX asrning 2 yarmida bastakor-hofizlar tomonidan qayta ishlangan bir qancha katta ashulalarning, ovoz, biror cholg'u yoki ansambl jo'rliги uchun moslashtirilgan namunalarini, shuningdek, katta ovozga ega ayrim ayol-san'atkorlar ijrochilikda o'rin tutishini ham qayd qilishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, katta ashula o'zbek musiqa merosidagi ko'plab ashula va cholg'u asarlariga xususan uslubiy jihatdan sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, "Yovvoyi maqom" yoki "Patnisaki" maqom deb nomlanuvchi o'ziga xos "birikmali" janr ko'rinishlari bu ijodiy jarayonning eng salohiyatli samarasidir. O'z navbatida katta ashula negizida usulli, cholg'u jo'rliги mavjud bo'lgan mumtoz ashula yo'llari ta'siri ostida yaratilgan barkamol asar kam emas. O'zbekistonning bir necha avlod bastakorlari, kompozitorlari ham katta ashulaning noyob musiqali vositalaridan, nodir ijro xususiyatlaridan o'zining yangidan-yangi ashula va cholg'u asarlarida unumli foydalanishganiga guvoh bo'lamiz. Suvora. Aytim janrlaridan yana bir noyob ko'rinishi asosan Xorazm viloyati vohasiga xos bo'lib suvora nomi bilan ma'lum va mashhurdir. Bu atamaning kelib chiqishi "suvoriy", ya'ni "otliq", "chavandoz" ma'nosini bildiruvchi so'z bilan bog'liq. Suvora o'zbek bastakorligiga mansub boshqa ashula yo'llari singari mumtoz she'riyat bilan bog'liq holda rivoj topib kelgan. Bunda Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat singari shoirlarning g'azallari katta o'rin tutadi. Suvora shaklan va usluban ko'proq maqom ashulasi turiga tutashib ketgan. Har holda ularning barqaror doira usuli davomli va baland avjlari, muazzam umum musiqiy uslubiy tabiati. Turkum shaklining qo'llanishi bunda yaqqol dalolat beradi. Bularning barchasi huzurbaxsh ruhiy-ma'naviy ozuqa sifatida diqqat bilan tinglash uchun mo'ljallangan. Bulardan "Munojot", "Savti Munojot", "Ufari munojot", "Mirza davlat", "Nasrulloi", "Cho'li iroq", "Segoh", "Ilg'or", "Sarparda", "Ali qambar", "Kurd", "Rohat" kabi mumtoz kuylarni misol tariqasida keltirish mumkin. Vatanimizning hozirgi zamon jonli musiqa amaliyotida sof cholg'u kuylaridan bo'lak ko'plab mumtoz ashulalar maqom ashula yo'llari har-xil cholg'ularga moslashtirilgan shakllarda yangrab kelmoqda. O'z navbatida esa ayrim mashhur cholg'u kuylariga so'z bog'lab, ularning ashulalarga aylantirilgan misollari ham uchraydi. Bunga mashhur bo'lib ketgan "Munojot" (A.Navoiy g'azali, Im.Ikromov qayta ishlagan) "Cho'li Iroq" (A.Navoiy g'azali, Im.Ikromov qatay ishlagan), "Navro'zi

ajam”, (Nodira g’azali, Sh.Jo’raev so’z solgan), “Nasrulloi” (A.Navoiy g’azali, F.Mamadaliyev qayta ishlagan) va boshqalar yorqin misol bo’la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o’tkazish to’g’risida”gi 2018 yil 1 noyabrda PQ-3990-son qarori.
2. “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o’tkazish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrda 946-son qarori.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O’zbekiston ovozi 2019-yil, 8- aprel. № 28-29 (32. 519).
4. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage Academicia Globe: Inderscience Research 2022–T.3 №.01–C.13-15.
5. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании // Science and Education. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.
6. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст. 59-62,
7. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021
8. IA.Kushayev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
9. Qo’shayev I.A. “Baxshichilik festivallarining musiqiy ta’limdagi o’rni” MUFALIM XOM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIY Ilimiy-metodikalyk jurnal 2023 5/3 san Nukis noyabr V.233-238.
10. Istamovna, Ibatova Nigora, and Ramazonov Shukhrat Rakhimovich. "THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE CREATIVE POTENTIAL OF THE STUDENTS IN THE FINE ARTS." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 7 (2019).
11. Istamovna, Ibatova Nigora, and Ibrahimova Aysha. "PSYCHOLOGY OF ART." International Engineering Journal For Research & Development 5 (2020): 3-3.
12. Aminov, Akmal. "RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 36.36 (2023).
13. Aminov, Akmal Shavkatovich. "ORTA MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINING OQITILISHIDA GRAFIK TOPSHIRIQLARNING ORNI." ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI 1(2022):140-144.
14. Shavkatovich, Aminov Akmal. "CHIZMACHILIK DARSLARIDA KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH IMKONIYATI VA SAMARADORLIGI." Journal of Innovation, Creativity and Art (2023): 162-166.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May 2022.
17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.

18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// *О'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.*- Toshkent. B.177-186.
20. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// *Научно – методический журнал «Проблемы педагогики»*. №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. *European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE)* Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May 2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy*. P.106-109. Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// *Вестник интегративной психологии. Журнал для психологов*. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. Nurillaev Farrukh Gaybullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. *European Chemical Bulletin (Scopus-Q3)* ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// *Science And Education Scientific Journal*, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// *Science And Education Scientific Journal*, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// *Science And Education Scientific Journal*, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. *Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development*, volume 22, December 2023, ISSN(E):2751-1731.
30. Nurillaev Farrukh Gaybullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. *European Chemical Bulletin (Scopus-Q3)* ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996